

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION JARAYONLAR JURNALI”

20-May, 2026-yil

SUN’IY INTELLEKT ORQALI FATVO BERISH TIZIMINING DINIY VA HUQUQIY ASOSLARI

Xaydarov M

O‘zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi f.f.d.(phd) dotsent

Oxunjonov Sh

O‘zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sun’iy intellekt orqali fatvo berish tizimining diniy va huquqiy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda sun’iy intellekt texnologiyalarining zamonaviy jamiyat hayotidagi o‘rni, uning diniy sohada qo‘llanish imkoniyatlari hamda fatvo tizimiga ta’siri yoritib berilgan. Shuningdek, sun’iy intellektning Qur’on qidiruv tizimlari, hadis bazalari, diniy chatbotlar va elektron fatvo platformalaridagi amaliy qo‘llanilishi tahlil qilingan. Maqolada fatvo chiqarish jarayonining islom huquqidagi o‘rni, ijtihodning murakkabligi hamda muftiy va faqihlarning mas’uliyati ilmiy manbalar asosida asoslab berilgan. Sun’iy intellekt tizimlarining diniy ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash va foydalanuvchilarga qulaylik yaratishdagi afzalliklari bilan bir qatorda, noto‘g‘ri diniy hukmlar chiqarish, ma’lumotlarning ishonchliligi, axborot xavfsizligi va huquqiy javobgarlik bilan bog‘liq muammolar ham ko‘rib chiqilgan.. Tadqiqot natijalari sun’iy intellektidan diniy sohada foydalanishning ilmiy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, diniy axborot xavfsizligini ta’minlash hamda zamonaviy texnologiyalarni an’anaviy fiqhiy bilimlar bilan uyg‘unlashtirishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, fatvo, ijtihod, fiqh, diniy chatbot, elektron fatvo, islom huquqi, axborot xavfsizligi, raqamli texnologiyalar, muftiy.*

KIRISH

XXI asr insoniyat taraqqiyotida raqamli texnologiyalar, axborot almashinuvi va sun’iy intellekt tizimlarining keskin rivojlanishi bilan xarakterlanmoqda. Ayniqsa, globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi natijasida sun’iy intellekt texnologiyalari jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib bordi. Hozirgi davrda sun’iy intellekt nafaqat texnik yoki iqtisodiy jarayonlarda, balki insonning kundalik turmushi, ma’naviy hayoti, ta’lim, sog‘liqni saqlash, davlat boshqaruvi, huquq tizimi hamda diniy sohalarda ham keng qo‘llanilmoqda. Internet tarmog‘ining ommalashuvi va raqamli platformalarning rivojlanishi tufayli sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish dunyoning deyarli barcha hududlariga kirib bormoqda.

Bugungi kunda aqlli texnologiyalar asosida ishlovchi tizimlar inson faoliyatini yengillashtirish, vaqtni tejash, mehnat unumdorligini oshirish hamda xizmatlar sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Jumladan, aqlli shaharlar, aqlli uylar, elektron hukumat tizimlari, virtual yordamchilar, avtomatlashtirilgan bank xizmatlari, elektron tijorat platformalari, haydovchisiz boshqariluvchi transport vositalari hamda tibbiyotdagi

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION JARAYONLAR JURNALI”

20-May, 2026-yil

diagnostika tizimlari sun’iy intellektning amaliy imkoniyatlarini yaqqol namoyon etmoqda. Shu sababli ham ko‘plab davlatlar sun’iy intellektni strategik rivojlanish omili sifatida e’tirof etib, ushbu sohani huquqiy jihatdan tartibga solish va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror mamlakatimizda sun’iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyot, ijtimoiy soha va davlat boshqaruviga joriy qilishning huquqiy hamda tashkiliy asoslarini belgilab berdi. Mazkur strategiyada sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish orqali O‘zbekistonni ushbu yo‘nalishda dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga olib chiqish maqsadi ilgari surilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktyabrdagi PF–189-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni sun’iy intellekt tizimlarini yanada takomillashtirish, ulardan foydalanish jarayonini nazorat qilish hamda huquqiy mexanizmlarni kuchaytirishda muhim bosqich bo‘ldi. Mazkur hujjatlarda sun’iy intellektdan foydalanish jarayonida xavfsizlik, axborot ishonchligi, ma’lumotlarni himoya qilish hamda texnologiyalarni inson manfaatlariga xizmat qildirish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan.

Sun’iy intellekt tizimlarining rivojlanishi insoniyat tarixidagi to‘rtinchi sanoat inqilobining muhim tarkibiy qismi sifatida baholanmoqda. Chunki ushbu texnologiyalar nafaqat ishlab chiqarish yoki iqtisodiyotga, balki jamiyatning ma’naviy va madaniy hayotiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellektning diniy sohalarga kirib kelishi yangi ilmiy, huquqiy va axloqiy muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Bugungi kunda internet foydalanuvchilarining ko‘pchiligi turli diniy savollariga javob olish uchun sun’iy intellekt tizimlariga murojaat qilmoqda. Bu esa diniy ma’lumotlarning haqqoniyligi, fatvolarning ishonchligi hamda diniy hukmlarning shar’iy asoslari masalasini dolzarb muammoga aylantirmoqda.

Ma’lumki, fatvo islom huquqida muhim o‘rin egallovchi diniy-huquqiy institut hisoblanadi. Fatvo chiqarish jarayoni Qur’on, hadis, ijmo’, qiyos va boshqa fiqhiy manbalarga asoslangan holda yuqori malakali muftiy yoki faqih tomonidan amalga oshiriladi. Fatvo berishda nafaqat diniy bilim, balki zamon, makon, urf-odat, ijtimoiy vaziyat va inson manfaatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan sun’iy intellektning diniy hukm chiqarishdagi o‘rni va imkoniyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda ayrim xorijiy davlatlarda sun’iy intellekt asosida ishlovchi diniy maslahat platformalari, chatbotlar va elektron fatvo xizmatlari joriy qilinmoqda. Ushbu tizimlar foydalanuvchilarga tezkor javob berish, ma’lumotlarni saralash va diniy manbalardan foydalanishda qulaylik yaratmoqda. Biroq sun’iy intellektning fatvo berishdagi faoliyati bilan bog‘liq bir qator xavf-xatarlar ham mavjud. Jumladan, noto‘g‘ri

diniy ma'lumotlarning tarqalishi, diniy hukmlarning noto'g'ri talqin qilinishi, mazhablararo kelishmovchiliklarning kuchayishi, ekstremistik g'oyalarning tarqalishi hamda javobgarlik masalasi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Sun'iy intellekt tizimlari ma'lumotlar bazasi asosida ishlaydi va ular mustaqil ravishda diniy ijtimod qilish imkoniyatiga ega emas. Chunki fatvo chiqarish faqat ma'lumot yig'ish emas, balki chuqur fiqhiy tahlil, shar'iy dalillarni qiyoslash, inson manfaatlarini hisobga olish va masalaning ijtimoiy oqibatlarini baholashni ham talab qiladi. Shu sababli sun'iy intellekt tomonidan berilgan diniy javoblarning ishonchlilik darajasi, shar'iy maqomi va huquqiy javobgarligi masalasi alohida ilmiy tadqiqotni talab etadi.

O'zbekiston aholisining asosiy qismi islom diniga e'tiqod qiluvchi musulmonlardan iborat ekanligi diniy masalalarga bo'lgan e'tiborni yanada oshiradi. Fuqarolarning diniy savollariga to'g'ri va ishonchli javob berish, diniy ekstremizm va noto'g'ri aqidalarning oldini olish, milliy qadriyatlarni himoya qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, sun'iy intellektning fatvo tizimida qo'llanish imkoniyatlarini o'rganish bilan bir qatorda, uning salbiy oqibatlarini oldindan aniqlash ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Mavzuning dolzarbligi yana shundaki, hozirgi davrda yoshlarning aksariyati diniy savollariga javob olishda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmoqda. Natijada ayrim hollarda ishonchsiz manbalar, noma'lum shaxslar yoki nazoratsiz sun'iy intellekt platformalari orqali noto'g'ri diniy ma'lumotlar tarqalmoqda. Bu esa jamiyatda diniy savodsizlik, noto'g'ri tushunchalar va turli ijtimoiy muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi huquqiy munosabatlarda ham yangi masalalarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, sun'iy intellekt orqali berilgan fatvo noto'g'ri bo'lib chiqsa, buning uchun kim javobgar bo'lishi, diniy maslahat beruvchi platformalarni nazorat qilish mexanizmlari, foydalanuvchilarning huquqlarini himoya qilish hamda diniy axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari alohida ilmiy yondashuvni talab etadi.

Mazkur tadqiqot ishida sun'iy intellekt orqali fatvo berish tizimining diniy va huquqiy asoslari, uning imkoniyatlari, xavf-xatarlari hamda zamonaviy jamiyatdagi o'rni kompleks ravishda tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajribalar, xorijiy fatvo markazlari faoliyati, O'zbekiston musulmonlari idorasi huzuridagi Fatvo markazining faoliyati hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari o'rganiladi.

Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt tizimlaridan diniy sohada foydalanishning ilmiy-huquqiy asoslarini shakllantirish, fatvo markazlari faoliyatini zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiya qilish hamda jamiyatda diniy axborot xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur ilmiy ish sun'iy intellektning diniy sohada o'rnini aniqlash, uning imkoniyat va cheklovlarini baholash hamda kelajakdagi rivojlanish istiqbollari belgilashda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION JARAYONLAR JURNALI”

20-May, 2026-yil

XXI asrga kelib insoniyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida sun’iy intellekt texnologiyalari maydonga chiqdi. Bugungi kunda dunyo miqyosida iqtisodiyot, sanoat, tibbiyot, ta’lim, xavfsizlik, moliya va davlat boshqaruvi kabi ko‘plab sohalarda sun’iy intellekt tizimlaridan keng foydalanilmoqda. Mazkur texnologiyalarning rivojlanishi natijasida inson faoliyatining ko‘plab yo‘nalishlari avtomatlashtirilib, murakkab jarayonlarni qisqa vaqt ichida amalga oshirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Shu sababli sun’iy intellekt nafaqat texnologik taraqqiyot mahsuli, balki zamonaviy jamiyat rivojlanishining muhim strategik omili sifatida ham baholanmoqda.

Sun’iy intellekt atamasi ingliz tilidagi “artificial intelligence” iborasidan olingan bo‘lib, insonning fikrlash, o‘rganish, tahlil qilish va qaror qabul qilish kabi kognitiv faoliyatlarini texnik tizimlar orqali amalga oshirishni anglatadi. Ushbu tushuncha ilk bor 1956-yilda Jon Makkarti tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U sun’iy intellektni “aqli mashinalar yaratish fan va texnikasi” sifatida ta’riflagan. Mazkur yondashuv sun’iy intellektning asosiy maqsadi inson aqlini modellashtirish ekanligini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt oddiy avtomatlashtirish tizimlaridan tubdan farq qiladi. Avtomatlashtirish tizimlari oldindan belgilangan algoritm asosida ishlaydi va yangi vaziyatlarga moslasha olmaydi. Masalan, avtomatik eshik yoki svetofor tizimi o‘ziga yuklatilgan vazifani bajaradi, biroq mustaqil tahlil qilish yoki qaror chiqarish qobiliyatiga ega emas. Sun’iy intellekt esa katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, o‘rganish, xatolarni tahlil qilish hamda yangi holatlarga moslashish imkoniyatiga ega. Shu jihatdan u inson tafakkuriga yaqinlashuvchi texnologik tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Sun’iy intellekt rivojlanishining nazariy asoslari XX asrning o‘rtalarida shakllana boshladi. Ayniqsa, ingliz olimi Alan Tyuringning ilmiy qarashlari bu yo‘nalish taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. U “Mashinalar o‘ylay oladimi?” degan savolni ilgari surib, kompyuter tizimlarining inson tafakkuriga taqlid qilishi mumkinligini nazariy jihatdan asoslab berdi. Tyuring tomonidan ishlab chiqilgan “Tyuring testi” hozirgi kungacha sun’iy intellekt darajasini baholash mezonlaridan biri sifatida qo‘llaniladi.

Shuningdek, Jon fon Neymann inson miyasi va kompyuter tizimlari o‘rtasidagi o‘xshashliklarni tahlil qilib, ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonlari inson tafakkuriga yaqinlashishi mumkinligini ta’kidlagan. Norbert Viner esa kibernetika nazariyasini rivojlantirib, axborot va boshqaruv tizimlarini yagona ilmiy yo‘nalish sifatida shakllantirdi. Mazkur olimlarning qarashlari keyinchalik sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishiga mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qildi.

2010-yillardan boshlab sun’iy intellekt texnologiyalari rivojlanishining yangi bosqichi boshlandi. Ayniqsa, “deep learning” – chuqur o‘rganish usullarining paydo bo‘lishi natijasida sun’iy intellekt katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilishda inson imkoniyatlariga yaqinlashdi. 2017-yilda transformer arxitekturasining yaratilishi esa tabiiy tilni qayta ishlash tizimlarida inqilobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Natijada ChatGPT, Gemini, Claude kabi generativ sun’iy intellekt tizimlari paydo bo‘lib, inson bilan tabiiy muloqot qilish imkoniyatini yaratdi.

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION JARAYONLAR JURNALI”

20-May, 2026-yil

Bugungi kunda sun'iy intellektning jamiyat hayotiga ta'siri tobora ortib bormoqda. Tibbiyot sohasida sun'iy intellekt yordamida kasalliklarni erta aniqlash, rentgen va MRT tasvirlarini tahlil qilish, dori vositalarini ishlab chiqish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimida esa individual o'qitish uslublari, avtomatik baholash va masofaviy ta'lim platformalarida sun'iy intellektning o'rni ortmoqda. Ayniqsa, generativ sun'iy intellekt asosidagi o'quv dasturlari o'quvchilarning bilim darajasini tahlil qilib, individual yondashuvni ta'minlamoqda.

Iqtisodiyot va biznes sohalarida sun'iy intellekt katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash orqali bozor tendensiyalarini aniqlash, moliyaviy xavflarni prognoz qilish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. “Big data” texnologiyalari bilan uyg'unlashgan sun'iy intellekt tizimlari inson tomonidan qisqa vaqt ichida amalga oshirib bo'lmaydigan murakkab tahlillarni bajarishga qodir bo'lib bormoqda.

Shuningdek, davlat boshqaruvi tizimida ham sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish kengaymoqda. Elektron hukumat tizimlari, raqamli xizmatlar, yuzni aniqlash tizimlari va xavfsizlik platformalari fuqarolarga qulaylik yaratish bilan birga boshqaruv samaradorligini oshirmoqda. O'zbekistonda ham sun'iy intellektni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Biroq sun'iy intellektning jadal rivojlanishi ayrim salbiy oqibatlarini ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, avtomatlashtirish natijasida ayrim kasblarning yo'qolib borishi ishsizlik muammosini kuchaytirishi mumkin. Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, sun'iy intellekt ta'siriga eng ko'p uchraydigan sohalar ma'muriy xizmatlar, ofis ishlari va ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq kasblardir. Bu esa kelajakda mehnat bozori tarkibining keskin o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Diniy sohada sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha tahliliy jadval

Jadval 1

Yo'nalish	Sun'iy intellekt qo'llanishi	Cheklov darajasi
Qur'on qidiruv tizimlari	Yuqori	Past
Hadis bazalari	Yuqori	Past
Diniy chatbotlar	O'rta	Yuqori
Fatvo tavsiyalari	Past	Juda yuqori
Ijtihod masalalari	Juda past	Eng yuqori

Shuningdek, sun'iy intellekt bilan bog'liq axloqiy va huquqiy muammolar ham mavjud. Masalan, sun'iy intellekt tomonidan noto'g'ri qaror chiqarilishi, shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy qayta ishlanishi yoki yolg'on axborot tarqatilishi jamiyat xavfsizligiga tahdid tug'dirishi mumkin. Ayniqsa, diniy va huquqiy masalalarda sun'iy intellektdan foydalanish katta ehtiyotkorlikni talab qiladi. Chunki diniy hukmlar faqat

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION JARAYONLAR JURNALI”

20-May, 2026-yil

texnik ma'lumotlar asosida emas, balki chuqur fiqhiy bilim, ijtimoiy holat va inson manfaatlarini hisobga olgan holda chiqariladi.

Sun'iy intellektning diniy sohada qo'llanilishi bilan bog'liq masalalar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda ayrim insonlar diniy savollariga javob olish uchun sun'iy intellekt chatbotlariga murojaat qilmoqda. Biroq sun'iy intellekt tizimlari mustaqil ijtihod qilish qobiliyatiga ega emas. Chunki ijtihod Qur'on, hadis, ijmo', qiyos va boshqa fiqhiy manbalarni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Bu esa faqat yuqori darajadagi diniy bilimga ega bo'lgan mujtahid olimlar tomonidan amalga oshiriladi.

Fatvo chiqarish jarayoni islom huquqida nihoyatda mas'uliyatli vazifa hisoblanadi. Muftiy nafaqat diniy manbalarni mukammal bilishi, balki zamon va jamiyat ehtiyojlarini ham chuqur anglay olishi zarur. Shu sababli sun'iy intellekt diniy sohada yordamchi vosita sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lsa-da, u muftiy yoki faqihning o'rnini to'liq bosa olmaydi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt insoniyat taraqqiyotining eng muhim texnologik yutuqlaridan biri bo'lib, u jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarni diniy va huquqiy jihatdan tartibga solish, ularning imkoniyatlari va xavf-xatarlarini ilmiy asosda o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sun'iy intellektning fatvo tizimidagi o'zni va imkoniyatlarini tadqiq qilish zamonaviy islom huquqshunosligi oldida turgan muhim ilmiy vazifalardan biridir.

XULOSA

Yuqoridagi tahliliy jadval va statistik ma'lumotlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, sun'iy intellekt texnologiyalari diniy sohada ma'lumotlarni izlash, saralash va foydalanuvchilarga tezkor tarzda taqdim etishda muhim yordamchi vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, Qur'on qidiruv tizimlari hamda hadis bazalarida sun'iy intellektidan foydalanish darajasining yuqori ekani ushbu texnologiyaning diniy-ma'rifiy faoliyatda samaradorligini ko'rsatadi. Bu esa foydalanuvchilarga kerakli oyat, hadis yoki diniy ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida topish imkoniyatini yaratmoqda.

Shuningdek, diniy chatbotlar orqali oddiy diniy savollarga avtomatik javob berish imkoniyati ham shakllanib bormoqda. Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, bunday tizimlarning ishonchlilik darajasi har doim ham yuqori emas. Chunki sun'iy intellekt tizimlari diniy matnlarni texnik jihatdan qayta ishlay olsa-da, ularning mazmun-mohiyatini shar'iy usul va fiqhiy qoidalar asosida chuqur tahlil qilish imkoniyati cheklangan.

Ayniqsa, fatvo chiqarish va ijtihod masalalarida sun'iy intellektning qo'llanish darajasi juda past ekani hamda cheklov darajasining eng yuqori ko'rsatkichda bo'lishi bu jarayonlarning naqadar murakkab ekanini anglatadi. Sababi, fatvo berish faqatgina ma'lumot yig'ish bilan cheklanmaydi, balki Qur'on, hadis, ijmo', qiyos, usul al-fiqh va zamonaviy ijtimoiy holatlarni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Bu esa keng ilmiy salohiyat, tajriba va shar'iy mas'uliyatni talab qiladigan jarayon hisoblanadi.

20-May, 2026-yil

Shu nuqtai nazardan qaraganda, sun’iy intellekt diniy sohada yordamchi texnologik vosita sifatida xizmat qilishi mumkin, biroq u muftiy yoki mujtahid olimlarning o‘rnini to‘liq egallay olmaydi. Chunki shar’iy hukmlar chiqarishda inson omili, diniy tafakkur, fiqhiy tajriba va ijtimoiy voqelikni anglash muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, kelajakda sun’iy intellekt texnologiyalarini diniy sohada qo‘llashda ularning imkoniyatlari va chegaralarini aniq belgilash, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar bilan an’anaviy diniy bilimlarni uyg‘unlashtirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Bu esa sun’iy intellektdan xavfsiz, mas’uliyatli va ilmiy asoslangan tarzda foydalanishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-358-son. – www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 22.10.2025 yildagi PF-189-son. – <https://lex.uz/>
3. Kalandarov P.I. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish: darslik. – Toshkent: TIQXMMI, 2021. – 350 b.
4. Sultanov R.O., Matyakubov K.K. Robototexnika asoslari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Nihol print, 2023. – 320 b.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Fiqhiy yo‘nalish va kitoblar. – Toshkent: Hilol-nashr, 2022. – 400 b.
6. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri / tarjima va tafsir muallifi: Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2012. – 500 b.
7. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2004. – 500 b.
8. Islom huquqshunosligi (Fiqh): o‘quv qo‘llanma / J. Toshqulov va boshq. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2014. – 350 b.
9. Razzoqova M. Mavlono Ya‘qub Charxiy (ilmiy merosi). – Toshkent: Muharrir, 2013. – 300 b.
10. Haydarov M.M. Zamonaviy fiqhiy masalalar: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2024. – 350 b.
11. Abdulvahob Xalof. Usulul fiqh. – Toshkent: Adolat, 1999. – 400 b.
12. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Usulul fiqh. – Toshkent: Sharq, 2010. – 500 b.
13. Abdulhamid Tursun. Ijtihod nima? // Hidoyat jurnali, 2008. – 300 b.